



## XALQ TA'LIMI TIZIMIDA KADRLAR SALOHIYATINI TAKOMILLASHTIRISH YO'NALISHLARI

**Sodiqjonova Sug'diyona Qahhorjon qizi**

*Farg'ona Politexnika instituti*

*1-bosqich magistanti*

*Farg'ona viloyat ,Farg'ona tumani*

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada hozirgi kunda dolzarb bo'lib kelayotgan mavzulardan biri xalq ta'limi tizimida kadrlar salohiyatini takomillashtirish yo'nalishlari, qonun va farmonlar keltirib o'tilgan

**Kalit so'zlar:** Kadrlar salohiyati, qadriyatlar, yutuqlar, ta'lim tizimi, malaka noshirish, moddiy rag'batlantirish, motivatsiya, qonun.

## IN THE PUBLIC EDUCATION SYSTEM THE DIRECTIONS FOR IMPROVEMENT OF PERSONNEL CAPACITY

**Abstract.** One of the funds allocated in this regard is the provision of personnel structure in the public education system, the creation of law and farms.

**Key words:** HR management, values, achievement, education system, qualification, , financial support, motivation, law.

O'zbekiston Respublikasi inson huquqlari va erkinliklariga rioya etilishini, jamiyatning ma'naviy yangilanishini, ijtimoiy yo'naltirilgan bozor iqtisodiyotini shakllantirishni, jahon hamjamiyatiga qo'shilishni ta'minlaydigan demokratik huquqiy davlat va ochiq fuqarolik jamiyati qurmoqda. Bugungi kunda mamlakatimizda inson, uning har tomonlama uyg'un kamol topishi va farovonligi, shaxs manfaatlarini ro'yobga chiqarishning sharoitlarini va ta'sirchan mexanizmlarini yaratish, eskirgan tafakkur va ijtimoiy xulq-atvorning andozalarini o'zgartirish respublikada amalga oshirilayotgan islohotlarning asosiy maqsadi va harakatlantiruvchi kuchidir. Xalqning boy intellektual merosi va umumbashariy qadriyatlar asosida, zamonaviy madaniyat, iqtisodiyot, fan, texnika va texnologiyalarning yutuqlari asosida kadrlar tayyorlashning mukammal tizimini shakllantirish O'zbekiston taraqqiyotining muhim shartidir.

Kadrlar tayyorlash milliy dasturi "Ta'lim to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonunining qoidalariga muvofiq holda tayyorlangan bo'lib, milliy tajribaning tahlili va ta'lim tizimidagi jahon miqyosidagi yutuqlar asosida tayyorlangan hamda yuksak umumiy va kasb-hunar madaniyatiga, ijodiy va ijtimoiy faollikka, ijtimoiy-siyosiy hayotda mustaqil ravishda mo'ljalni to'g'ri ola



bilish mahoratiga ega bo'lgan, istiqbol vazifalarini ilgari surish va hal etishga qodir kadrlarning yangi avlodini shakllantirishga yo'naltirilgandir. Dastur kadrlar tayyorlash milliy modelini ro'yobga chiqarishni, har tomonlama kamol topgan, jamiyatda turmushga moslashgan, ta'lim va kasb-hunar dasturlarini ongli ravishda tanlash va keyinchalik puxta o'zlashtirish uchun ijtimoiy-siyosiy, huquqiy, psixologik-pedagogik va boshqa tarzdagi sharoitlarni yaratishni, jamiyat, davlat va oila oldida o'z javobgarligini his etadigan fuqarolarni tarbiyalashni nazarda tutadi.

Ushbu ishlarni tizimlilikini ta'minlash maqsadida kadrlar salohiyatini oshirish, malakasini oshirish, xalq ta'limi tizimidagi kadrlar sifatini tubdan yaxshilash maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 29-apreldagi "O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-5712-sonli Farmoni ijroga yo'naltirildi. Mazkur Farmonga asosan mamlakatdagi umumiy o'rta va maktabdan tashqari ta'limni tizimli isloh qilishning ustuvor yo'nalishlarini belgilash, o'sib kelayotgan yosh avlodni ma'naviy-axloqiy va intellektual rivojlantirishni sifat jihatidan yangi darajaga ko'tarish, o'quv-tarbiya jarayoniga ta'limning innovatsion shakllari va usullarini joriy etish maqsadida, O'zbekiston Respublikasining 2030-yilga kelib PISA (The Programme for International Student Assessment) Xalqaro miqyosda o'quvchilarni baholash dasturi reytingi bo'yicha jahonning birinchi 30 ta ilg'or mamlakati qatoriga kirishiga erishish, uzluksiz ta'lim tizimi mazmunini sifat jihatidan yangilash, shuningdek professional kadrlarni tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirish, o'qitish metodikasini takomillashtirish, ta'lim-tarbiya jarayoniga individuallashtirish tamoyillarini bosqichma-bosqich tatbiq etish, xalq ta'limi sohasiga zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va innovatsion loyihalarni joriy etish, xalq ta'limi muassasalarining moddiy-texnika bazasini mustahkamlash va budjetdan mablag' bilan ta'minlashning samaradorligini oshirish, yoshlarni tarbiyalash va ularning bandligini ta'minlashda maktabdan tashqari ta'limning zamonaviy usullari va yo'nalishlarini joriy etish, davlat-xususiy sheriklikni rivojlantirish hisobiga davlat ta'lim tizimida raqobat muhitini kengaytirish, yoshlar ta'lim-tarbiyasi uchun qo'shimcha sharoitlar yaratishga qaratilgan kompleks chora-tadbirlarni o'z ichiga olgan beshta tashabbusni amaliyotga tatbiq etish, xalq ta'limi tizimida faoliyat ko'rsatishning jozibadorligini oshirish maqsadida umumiy o'rta ta'lim muassasalari xodimlarining mehnatiga haq to'lash, moddiy rag'batlantirish va ijtimoiy himoya qilish darajasini bosqichma-bosqich oshirib borish masalalari qamrab olingan.

Ushbu yo'nalishlarda xalq ta'limi tizimida kadrlar salohiyatini oshirish va rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega. Birinchidan, Malaka oshirish va qayta tayyorlash kurslari bugungi kunda dolzarb masala sifatida ko'rilmoqda. • O'qituvchilar va ta'lim xodimlari uchun muntazam ravishda malaka oshirish



kurslarini o'tkazish bugungi kunda juda ham katta ijobiy natijalarga erishishga hissa qo'shadi. Ushbu kurslar orqali o'qituvchilar va ta'lim xodimlari yangi pedagogik yondashuvlar va metodlarni o'zlashtiradilar va ta'lim muassasalarida yangicha uslublar orqali dars jarayonlarini qiziqarli va samarali o'tishga harakat qiladilar. Ikkinchidan, Innovatsion ta'lim uslublarini joriy etish muhim ahamiyat kasb etadi. Masalan;

- Interaktiv darslar, loyiha asosidagi o'qitish, flipped classroom (orqaga aylantirilgan dars) kabi yangi usullarni tatbiq etish orqali dars shakli unumdorligi ortib boradi.

Uchinchidan, Xalqaro tajriba almashinuvi juda katta samara berishi ehtimoldan xoli emas. Xalqaro konferensiyalar va seminarlar orqali o'qituvchilarni global ta'lim tajribasi bilan tanishtirish. Bundan tashqari boshqa mamlakatlardan mutaxassislar bilan hamkorlik qilish va tajriba almashish darslari orqali o'quvchi yoshlarning darsga bo'lgan qiziqishlari ortadi va dars sezilarli darajada samrali va foydaali o'tiladi. To'rtinchidan, o'qituvchilarni rag'batlantirish ham muhim hisoblanadi. Moddiy rag'batlantirish xodimlarning ish faoliyatini kuchaytiradi, ularning karyera rivojlanishiga yordam beradi va ta'lim sifatini yanada yuksaltirishga xizmat qiladi. Umuman olganda, ushbu jabha bo'yicha to'g'ri iqtisodiy siyosat va resurslarni samarali taqsimlash, ta'lim muassasalarida yangi usullarni joriy etish orqali amalga oshirilishi kerakligi ko'zda tutiladi. Natijada, xodimlarning ishonchi kuchayadi va ta'lim jarayoni sifat jihatidan yaxshilanishni boshlaydi. Umumiy o'rta ta'lim muassasalarida ta'lim sifatini oshirishga qaratilgan tadbirlarning ta'sirchanligini hamda maktablar rahbarlari va pedagogik jamoalarning mas'uliyatini yanada oshirish, umum ta'lim muassasalarining o'rnak ko'rsatgan xodimlari faoliyatining natijadorligi asosida ularni rag'batlantirishning shaffof tizimini joriy etish zarurdir.

Vazirlar Mahkamasining "Umumiy o'rta ta'lim muassasalarining o'rnak ko'rsatgan xodimlarini moddiy rag'batlantirish tartibini takomillashtirish to'g'risida" 2019-yil 30-sentabrdagi 823-son qarorida belgilangan. Qarorga muvofiq ta'lim muassasalarida kadrlarni moddiy rag'batlantirish tartibini takomillashtirish katta ahamiyatga ekanligi takidlanib o'tilgan. Agar qaror haqiqatdan ham amalga qo'llansa kadrlar bundan mativatsiya oladilar va ishlariga bo'lgan hurmat va sodiqlik hissi kuchayadi natijada ta'lim sifat samaradorligi yuksalib boradi.[2]

Hozirgi kunda ta'lim muassasalarida kadrlarni qo'llab quvatlash hamda ularga moddiy rag'bat berishni asosiy omil sifatida korilmasligi ishchilarni samaradorligini tushirishiga olib keladi. Shuning uchun yuqoridagi qarorni joriy qilish oz samarasini ko'rsatadi. Ushbu qarorda ta'lim beruvchi ishchi xodimlarni moddiy rag'batlantirish uchun yetarlicha fikr mulohazalar keltirilgan, albatta qarorga muvofiq holda samarali ishlagan har jabhada o'zini ko'rsatgan kadrlarga moddiy rag'batlantirish orqali mativatsiya beriladi va bu kadrlarni ishlariga bo'lgan sodiqlik hissini beradi.



Ta'lim tizimidagi innovatsiyalar va yangiliklar o'quv jarayonini samarali va qiziqarli qilishda muhim ahamiyatga ega. Texnologik vositalar, interaktiv o'qitish metodlari, differensial ta'lim, STEAM yondashuvi, emotsional intellektni rivojlantirish, ota-onalar va jamiyat bilan aloqalar, yangi baholash usullari va sun'iy intellektning ta'limda qo'llanilishi – bularning barchasi o'quvchilarni yanada faol, mustaqil va muvaffaqiyatli qilishga yordam beradi. Ushbu yo'nalishlarni amalga oshirish orqali kadrlar salohiyatini oshirish va ta'lim sifatini yaxshilash mumkin. Bu jarayonlar o'zaro bog'liq bo'lib, bir-birini to'ldiradi va ta'lim tizimining umumiy sifatini yaxshilashga yordam beradi.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR**

1 O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 29-apreldagi “O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida”gi PF-5712-sonli Farmoni

2. Vazirlar Mahkamasining “Umumiy o'rta ta'lim muassasalarining o'rnak ko'rsatgan xodimlarini moddiy rag'batlantirish tartibini takomillashtirish to'g'risida” 2019-yil 30-sentabrdagi 823-son qarori

3 Jumamurodova D., Abdulayeva U. International scientific journal science. feb. 16. 2024. 248, 249 betlar.

4. Nimatullayeva M. Ta'lim tarbiyaning zamonaviy shakllari. Sirdaryo. O'qituvchi. 3(1)jan. 2023. 2-3betlar.